


## (Vayenni baza) 23-masala yechimi.

**Masala:** Po`lat quvurning uzunligi **20 m**, uni bir gal bir uchidan osib qo`yilgan, boshqa payt yerga tik qo`yilgan. Bu ikki holda quvur uzinliklari farqi ( $\mu_m$ ) qanday? Po`lat zichligi **7900 kg/m<sup>3</sup>**, Yung moduli **200·10<sup>9</sup> Pa**.  $g=10\text{m/s}^2$



Biz quvurni elementar  $dx$  qismlarga bo`lib chiqamiz. Bunda elementlar sonini  $N = \frac{l}{dx}$  deymiz ( $N \gg 1$ ). Har bir elementni  $k = k_0(N-1)$  bikrlikli prujinalar tutashtirib turadi deb faraz qilamiz va bunda prujinalar soni  $N-1$  ta bo`ladi. Bu yerda  $k_0$  butun quvurning bikrligi. Har bir prujinaning cho`zilishini topib, ularni qo`shib chiqamiz va bu butun quvurning cho`zilishiga teng. Albatta bu yerda  $N-1$  ta  $k$  bikrlikli prujina ketma-ket ulanganda, umumiylik bikrlik  $k_0$  ga teng bo`lishi hisobga olindi.

Har bir prujinaning cho`zilishini hisoblaymiz:



$$\begin{aligned} dy_1 &= \frac{dmg}{k} = \frac{\rho S g dx}{k_0(N-1)} \\ dy_2 &= \frac{2dmg}{k} = \frac{2\rho S g dx}{k_0(N-1)} \\ dy_3 &= \frac{3dmg}{k} = \frac{3\rho S g dx}{k_0(N-1)} \\ &\dots \\ dy_{N-1} &= \frac{(N-1)dmg}{k} = \frac{(N-1)\rho S g dx}{k_0(N-1)} \end{aligned}$$

Yuqoridagilarni qo`shamiz va quyidagi natijaga ega bo`lamiz:

$$\left. \begin{aligned} dy_1 &= \frac{dmg}{k} = \frac{\rho S g dx}{k_0(N-1)} \\ dy_2 &= \frac{2dmg}{k} = \frac{2\rho S g dx}{k_0(N-1)} \\ + dy_3 &= \frac{3dmg}{k} = \frac{3\rho S g dx}{k_0(N-1)} \\ &\dots \\ dy_{N-1} &= \frac{(N-1)dmg}{k} = \frac{(N-1)\rho S g dx}{k_0(N-1)} \end{aligned} \right\} \Rightarrow \Delta y = \sum_{i=1}^{N-1} dy_i = \frac{\rho S g dx}{k_0(N-1)} (1 + 2 + 3 + \dots + N-1)$$



$$\Delta y = \frac{\rho S g dx}{k_0(N-1)} \sum_{i=1}^{N-1} i; \quad \sum_{i=1}^{N-1} i = 1 + 2 + 3 + \dots + N-1 = \frac{N(N-1)}{2};$$

$$\Delta y = \frac{\rho S g dx}{k_0(N-1)} \frac{N(N-1)}{2} = \frac{\rho S g N dx}{2k_0} = \frac{\rho S g l}{2k_0}$$



@FizikaNo1

Agar  $k_0 = \frac{ES}{l}$  ekanligini inobatga olsak quyidagi natija kelib chiqadi:

$$\Delta y = \frac{\rho g l^2}{2E}$$

Demak cho`zilish  $\Delta y = \frac{\rho g l^2}{2E}$  ga teng ekan. Siqilishda ham xuddi shu amallar siqilish

uchun bajariladi. Umumiy cho`zilish va siqilishlar yig`indisi  $\Delta y_{um} = \frac{\rho g l^2}{E}$  ga tengligi kelib chiqdi. Demak bu uzunliklar farqiga teng. **Javob:**  $\Delta y_{um} = \frac{\rho g l^2}{E} = 158\mu m$  (A)